

**O‘ZBEKISTON MILLI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

SAYFULLOYEV SHOHRUH AMIN O‘G‘LI

**«ION LEGIRLASH YORDAMIDA KREMNIYDA FeSi_2 VA CoSi_2
SILITSIDINI HOSIL QILISH MEXANIZMLARINI TADQIQ QILISH»**

01.04.10 – YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Sayfulloyev Shohruh Amin o'g'li

Ion legirlash yordamida kremniyda FeSi_2 va CoSi_2 silitsidini hosil qilish
mexanizmlarini tadqiq qilish. 3

Сайфуллоев Шохрух Амин угли

Изучение механизмов образования силицидов FeSi_2 и CoSi_2 на
кремнии, полученных ионным легированием. 23

Sayfulloyev Shohruh Amin o'g'li

Study of mechanisms of formation of silicides FeSi_2 and CoSi_2 on silicon
obtained by ionic doping 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works. 47

**O‘ZBEKISTON MILLI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

SAYFULLOYEV SHOHRUH AMIN O‘G‘LI

**«ION LEGIRLASH YORDAMIDA KREMNIYDA FeSi_2 VA CoSi_2
SILITSIDINI HOSIL QILISH MEXANIZMLARINI TADQIQ QILISH»**

01.04.10 – YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/FM381 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ispm.uz) hamda «ZiyoNeb» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Egamberdiyev Baxrom Egamberdiyevich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Mamadalimov Abdug'ofur Teshaboyevich fizika-matematika fanlari doktori, akademik Abduraxmanov Qaxor Pattaxovich Fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Namangan muhandislik-qurilish instituti


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «22» 05 kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent sh., Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy). Tel./Faks: (+99871) 248-79-91/(+99871) 248-79-92, e-mail: info@ispm.uz.


Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100057, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel./faks: (+99871) 248-79-91/(+99871) 248-79-92, e-mail: info@ispm.uz, O'zMU huzuridagi YAFM III majlislar zali).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «13» 05 kuni tarqatildi.
(2023 yil «13» 05 dagi № 46 raqamli reestr bayonnomasi)




Sh.B. Utamuradova,
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, i.-m.f. d., professor


J.J. Hamdamov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.-m.f. (PhD), k.i.x.


N. Turgunov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, f.-m.f. d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi davrda jahon amaliyotida kremniy sirtida metallarning barqaror silitsidlarini va turg'un bo'lmagan birikmalarini ham hosil qilish mumkinligi ma'lim. Silitsidlar asosan metall atomlarining termodiffuziya natijasida hosil bo'lishi kuzatiladi. Turg'un bo'lmagan fazalarning shakllanishi, gaz fazasi orqali metall atomlarining diffuziya jarayoni yoki kremniy sirtiga purkalgan metall qatlami keyinchalik termik ishlov berish jarayoniga bog'liqdir. Kremniyga metall atomlarini ion legirlash, undan keyingi termik ishlov berish orqali ham silitsidlarni hosil qilib, silitsid qatlamlarining oson boshqarish mumkin. Bu jarayonlar juda murakkab va katta ilmiy qiziqish uyg'otadi, chunki turg'un bo'lmagan fazalar g'ayritabiiy xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ko'rib chiqilayotgan tizimlardagi fazaviy o'tishlarning har-xilligini tushuntirish imkonini beradigan nazariya hali mavjud emas. Eksperimental natijalar bir-biriga mos emas. Shuning uchun Fe/Si va Co/Si tizimlarida silitsid hosil bo'lishining dastlabki bosqichlari muammosi ilmiy adabiyotlarda muhokama qilinmoqda va tadqiqotlar o'tkazilishini talab etadi.

Dunyo miqyosida o'tish metallari atomlarini kremniydagi silitsidlari katta (KIX) va o'ta katta (O'KIX) integral sxemalarning zamonaviy texnologiyasida muhim ahamiyatga ega. Shottki diodlarini, katta integral sxemalarning faol sohalarida sifatli omik kontaktlarni olish, kichik qarshilikka ega bo'lgan, yuqori haroratlarga chidamli elementlar oralaridagi yupqa qatlamlar, metal-dielektrik-yarimo'tkazgich tranzistorlarinig zatvorlarini olish texnologiyalarida samarali ishlatiladi.

Respublikamizda ushbu muammoni hal qilishning eng informatsion va istiqbolli usullaridan biri ikkilamchi ion mass-spektroskopiya (IIMS) va Rezerford teskari sochilishi (RTS) yordamida kremniy sirtini tahlildir. Bugungi kunda IIMS kremniy sirtida temir va kobalt silitsidlarining shakllanish jarayonini tadqiq etishda uchun ishlatilib bo'lgan bir necha ishlar mavjud. O'tkazilgan tadqiqotlarning natijalarini ilmiy tahlil qilish kremniydagi elektronlarining bog'lanish energiyasi $2p$ hosil bo'lgan qatlamlarning fazaviy tarkibi juda sezgir ekanligini ko'rsatadi. Biroq, turli ishlarda bir xil fazalar uchun berilgan bog'lanish energiyalarining qiymatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Ushbu farqlar ishlatilgan qurilmalarning yetarlicha yuqori energiyalarni o'lchay olmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Odatda, energiya o'lchamlari 0,15-0,3 eV oraliqda bo'lib, taglik asoslarni tarkibiy qismlarga ajralishini qiyinlashtirardi. Bundan tashqari, taglik asos sifatida monokristall kremniyning turli holatdagi sirtlari ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3855-son, 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-sonli "Ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmonini, 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi

Farmoni, shuningdek ushbu sohada qabul qilingan boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqotini muayyan darajada bajarishga mos keladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi III-3 “Energetika, energiya va resurslarni tejash, transport, mashina-asbobsozlik, zamonaviy elektronika va mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozlikni rivojlantirish” fan va texnologiyasining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirga kunga qadar dunyo, MDH va o‘zbek olimlaridan kremniy asosida ko‘p qatlamli kompozitsion materiallar va geterostrukturalarni yaratishda MNEdan foydalanish imkoniyatlari tizimli tadqiq qilish quyidagi ilmiy markazlarda o‘rganilgan: birinchilardan bo‘lib IFP SO RAN (Stenin S.I., Pchelyakov O.P. va boshqalar), MNIIRM (Minsk), LFTI (Alferov J.I., Kopev P.S. laboratoriyasi, Sokolov N.S. guruhi), IRE (Dvoryankin V.F., Mityagin A.Y., Mokerov V.G. Jamoalari), NII ME va NIIFP (Zelenograd), FGUP “NPO Orion” (Osadchev L.A.), SNITI (Jitkovsky V.D.), IPTM (Vyatkin A.F.), IOFAN va FIAN (barchasi- Moskva shahri) va boshqa olimlar bu masala bilan ham shug‘ullanishgan.

O‘zbekistonlik taniqli olimlar S.Z.Zaynabidinov, A.T.Mamadalimov, M.K. Baxadirxanov, K.P.Abduraxmanov, Sh.B.Utamuradova, X.S.Daliyev va boshqalarning ishlarida 3d-metall guruhi elementlari bilan legirlangan kremniy monokristalining elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlariga kirishma atomlari hosil qilgan nuqsonlarning ta’siri shuningdek, bunday kirishma nuqsonlarni holatiga tashqi omillarning ta’siri batafsil tadqiq etilgan. Kremniy asosida ko‘p qatlamli kompozitsion material va geterostrukturalarni yaratish bo‘yicha shug‘ullangan avtorlarning ishlari keltirilgan. Ammo mavzu bo‘yicha – kremniyda Mn, Co, Ni silitsidlarini hosil bo‘lish mexanizmlari. fazaviy holatlari, muvozanat holatlari (metallga boyitilgan quyi silitsidlar, kremniyga boy yuqori silitsidlarning hosil bo‘lish mexanizmlari rentgen nurlarining qaytish spektri va optik qaytish koeffitsiyentining spektral bog‘lanishlari orqali) birinchi marotaba Amaliy fizika institutining katta ilmiy hodimi T.S.Kamilovning tomonidan o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining koordinatsion loyihasi asosida 4.2.1 “Ion-plazma texnologiyasida qattiq jismlarning fizik xossalarni nazorat qilish va ularni mikroelektronikada qo‘llash imkoniyatini o‘rganish” mavzusidagi amaliy loyiha (2017-2020) bo‘yicha bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Ion legirlash yordamida kremniyda $FeSi_2$ va $CoSi_2$ yupqa qatlam silitsidlarini hosil bo‘lish mexanizmlarini o‘rnatish.

Tadqiqotning vazifalari:

- Fe, Co ionlarining katta dozalari implantatsiyasi va undan keyingi termik qizdirishning kremniy monokristallari sirtiga yaqin sohalarda elementlar tarkibiga, kristall tuzilishiga ta’sirini o‘rganish;

- yupqa monokristall silitsidli qatlamlar hosil bo'lishining optimal shartlarini aniqlash, valent va o'tkazuvchanlik sohalarida elektron holatlarining zichligi taqsimotini aniqlash;

- ion-implantatsiya qilingan kremniy namunalarining qisqa muddatli termik qizdirilishi natijasida kuzatiladigan yangi sirt usti tuzilmalari (silitsid qatlamlarini) shakllanishi mexanizmlarini aniqlash;

- kremniydagi implantatsiyalangan o'tish guruhi atomlarining dozasi va ularning taqsimlanishiga temperaturaning ta'siriga qarab qizdirish rejimlarini IIMS, OES va RTS usullari orqali aniqlash.

- kremniydagi Fe va Co o'tish guruhlarining ion implantatsiyalangan sohalar holatiga konsentratsiya profillari va termik qizdirish ta'sirini tahlil qilish;

Tadqiqot obyekti ion implantatsiya orqali kremniy sirti yaqinida hosil qilingan o'tish elementlarining yupqa qatlamlari.

Tadqiqot predmeti rentgen mikrozonid tahlili (Jeol Super Probe JXA-8800 R/RL), Xoll effekti usuli, to'rt zondli usul va texnologik usullar (IIMS), (EOS), (RQYO) iborat.

Tadqiqot usullari. Analitik kamera orqali ion implantatsiya usuli bilan kremniy sirtida o'tish elementlarining yupqa qatlamlarini olish texnologik usuli, Oje-elektron spektroskopiyasi, tez elektronlar difraksiyasi, Rezerford teskari sohilishi o'lchash usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- birinchi marta kremniyning sirtiga yaqin sohalarida, energiyasi 40 KeV, dozalari $10^{15} \div 10^{17} \text{ sm}^{-2}$ oraliqda bo'lgan Fe va Co ionlarini implantatsiyalash orqali, qalinligi 100 \AA bo'lgan temir va kobalt atomlarining yupqa qatlamlarini hosil qilish va implantatsiyadan keyin $800 \text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratdan yuqori haroratlarda termik ishlov berish orqali silitsid qatlamlarini hosil qilish texnologiyasi yaratilgan;

- energiyasi 40 keV va $10^{15} \div 10^{17} \text{ ion/sm}^2$ nurlanish dozasi ega bo'lgan Fe ionlari bilan ion implantatsiyasi orqali legirlangan Si monokristallarini legirlashda Si sirtidan $350\text{-}450 \text{ \AA}$ chuqurlikda Fe atomlarining konsentratsiyasi yuqori qiymatga erishib, sirt konsentratsiyaning $25\div 30 \text{ at.}\%$ ni tashkil etishi RTS spektri tahlili asosida aniqlangan;

- $10^{15} \div 10^{17} \text{ ion/sm}^2$ nurlanish dozasi ega bo'lgan Fe ionlari bilan ion implantatsiya orali Si namunalarini legirlashda kengligi $d \approx 100 \text{ \AA}$ bo'lgan qatlamda hosil bo'lishi va bu qatlam asosan FeSi_2 tipidagi birikmalardan iborat ekanligi aniqlangan;

- Co^+ ionlari bilan implantatsiyalangan kremniy $800 \text{ }^{\circ}\text{C}$ dan yuqori haroratlarda qizdirilganda CoSi_2/Si yupqa qatlamlar hosil bo'lishi aniqlangan;

- kremniy namunalarini katta dozalarda ($10^{15} \div 10^{17} \text{ ion/sm}^2$) Co^+ ionlari bilan ion-implantatsiya qilinganda $950 \text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratdan yuqori haroratlarda termik ishlov berish orqali CoSi_2 silitsid qatlamlarini hosil bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli strukturali kombinatsiyalarda silitsidlarning ion-legirlangan qatlamlarini olishning optimal rejimlari ishlab chiqilgan;

materiallarning sirtidan ma'lum chuqurligida silitsidlarni yaratilishi parametrlarni boshqarish imkonini aniqlandi;

ion implantatsiya usuli yordamida olingan silitsidlar fotodatchiklar, O'YCH-tranzistorlar, past omli-kontaktli kabi sezuvchan elektron asboblari va strukturalar yaratilishi uchun qo'llanilishi o'rganildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi MNE, QPE va RE usullari orqali 40 keV energiya va $10^{15} \div 10^{17}$ ion/sm² nurlanish jadalliklarida Fe va Co ionlarini implantatsiyasi orqali kremniyning sirtiga yaqin sohalarda silitsidning yupqa qatlamini xosil qilish texnologiyasidan foydalanish, ilmiy natijalar olishda rentgen mikrozonid tahlili (Jeol Super Probe JXA-8800 R/RL), Oje elektron spektroskopiyasi, tez elektronlar diffraksiyasi va Rezerford teskari sochilish usullarini qo'llanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qatlamlarning tarkibiy, o'suvchi, elektrofizik xususiyatlari jarayonida ionli implantatsiya borasida yangi ma'lumotlarni qo'lga kiritish, shuningdek, ushbu jarayon va xususiyatlar haqida nazariy tasavvurni rivojlantirish nazarda tutildi. Ionli implantatsiyada yuzaning elektron o'zgarishiga olib keluvchi mexanizmlarni aniqlash va valentli elektronlar xususiyatini, tabiatini aniqlash, zaryadlangan zarrachalarning qattiq jismlarga nisbatan ta'siri nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oksidli qatlam ostiga temir va kobalt atomlari kiritilishining aniqlangan samarasidan kremniy sirtida hosil bo'ladigan temir va kobalt disilitsidlarining o'tayupqa qatlamlarining morfologik xususiyatlarini yaxshilash uchun qo'llanishdan iborat va bu qatlamlar ta'sirchan elektron asboblari: termo va fotodatchiklar, SVCH-tranzistorlari, past omli kontaktlar yaratish uchun qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.

Kremniyning ion-implantatsiya qilingan namunalari qisqa muddatli termik toblanishi natijasida kuzatiladigan yangi sirt usti tuzilmalari shakllanishining mexanizmlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kobalt bilan ion-implantatsiya qilingan kremniyda barqaror elektrofizik parametrlarga ega bo'lgan boshqariladigan nano o'lchovli tuzilishga ega yarimo'tkazgich materiallarni olish mexanizmlarini aniqlashga kobalt kremniy yupqa plyonkasining haqiqiy elektron tuzilishini aks ettiruvchi energiyaviy diagrammasini olish, kobalt kremniy yupqa plyonkasining energetik xarakteristikalarini aniqlash ekanligidan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida № OT-F3-13 "Kremniy-silitsid-metall erkin ko'ppqatlamli nanoplyonkali strukturalarning shakllanish mexanizmlari va ularning elektron va kristall strukturalarini o'rganish" amaliy loyihasining "Turli texnologiyalar yordamida olingan CoSi₂ plyonkalarining asosiy energetik xususiyatlarini aniqlashda" foydalanilgan (O'zR FA ning 2022-yil 7-noyabrdagi №2/1255-2798-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan barqaror elektrofizik parametrlarga ega bo'lgan boshqariladigan nano o'lchovli tuzilishga ega yarimo'tkazgich materiallarni olish mexanizmlarini aniqlashga imkon bergan.

O'tish elementlarining kirishmalari bilan kremniyni legirlashning fizik va kimyoviy jihatlari va texnologiyasi ishlab chiqilgan, temir silitsidlarining Si 2p elektronlarining bog'lanish energiyalarining belgilangan qiymatlari asosiy sathlarining fotoelektron spektroskopiya usulini amaliy qo'llash, oksidli qatlam ostiga temir va kobalt atomlarini singishi "FOTON" AJda ishlab chiqariladigan yarimo'tkazgichli kremniy asosidagi elektron qurilmalarda foydalanilgan ("O'zeltexsanoat" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil 24 yanvar oyidagi №04-3/128 ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish sezgir elektron qurilmalar va tuzilmalar, foto sezgir qurilmalar, tranzistorlar, past qarshilikli kontaktlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha asosiy natijalar 7 ta ilmiy ishda, ulardan 1 tasi dissertatsiya ishlarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shu jumladan 6 ta maqola xorijiy xalqaro jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va iqtiboslar keltirilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 112 betni, shu jumladan 28 ta chizma va 100 nomdagi adabiyotlar ro'yxatini tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan aloqasi aniqlangan, muammoning o'rganilganlik darajasini ochib berilgan, maqsad va vazifalari bayon etilgan, tadqiqot obyektlari, mavzulari va usullari keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, natijalarning joriy qilinishi, ish natijalarini sinovdan o'tkazish va nashr etish, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

"Kremniyda temir va kobalt silitsidlarining tuzilishi va xossalari (adabiyotlar tahlili)" nomli birinchi bobda metall silitsidlar hosil bo'lishining asosiy qonuniyatlari, kristall va elektron tuzilish xususiyatlari hamda silitsidlarning elektrofizik xossalari o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ma'lumotlar berilgan. Si yuzasida ionli legirlangan qatlamlarning o'sish muammolari, turli o'sish mexanizmlarini aniqlaydigan epitaksiyaning termodinamik jihatlari, o'sish sharoitlarining morfologiya, stixiometriya, strukturaviy nuqsonlar va qatlamlarning elektrofizik xususiyatlari bilan aloqasi tahlil qilingan.

"Tajriba o'tkazish shartlari va o'lchash usullari" nomli ikkinchi bobda sirtni Oje-tahlilini tajribada o'rnatish va o'tkazish usullari va namunaning chuqurligi bo'ylab kirishmalarning tarqalish taqsimotlarini aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Boshlang'ich material sifatida Choxral usuli bilan o'stirilgan, bor konsentratsiyasi $2 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$ va $1 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$ bo'lgan KDB markali kremniydan foydalanilgan. Temir va kobaltning ion implantatsiyasi Kurchatov nomidagi Atom

energiyasi institutida ILU-3 qurilmasida amalga oshirildi. Legirlash shartlari quyidagicha edi: kremniy plastinkalarning silliqlangan yuzasiga energiyasi 40 KeV, tok zichligi 50 mA/sm² va dozalari 10¹⁵ dan 10¹⁷ ion/sm² gacha bo'lgan ionlar yo'naltirildi. Implantatsiya jarayoni xona haroratida o'tkazilgan. Bu tajribada ishtirok etayotgan nuqsonlar keyin ham qoladi, ya'ni ularning taqsimlanishi implantatsiya yo'li bilan aniqlanadi, deb faraz qilishga imkon beradi.

O'stirilgan qatlamlar strukturasi o'rganishning asosiy usuli bu tez elektronlar difraksiyasi (TED) usuli bo'lib, sirt tuzilishi va uning evolyutsiyasini bevosita o'sish davomida o'rganishga imkon beradi.

O'sishning o'ta toza sharoitlari so'rib olishning yog'siz usullari (membranali, sorbsiyali, magnitrazryadli va titan sublimatsiyali nasoslar)ni ishlatish orqali, suyuq azot bilan sovutiladigan kriopanellardan foydalanish, qurilmani sovutish uchun maxsus chora-tadbirlardan foydalanish orqali erishildi. Qoldiq gazlar atmosferasining tarkibini tahlil qilish uchun o'sish kamerasi to'rtburchak mass-spektrometri bilan jihozlangan.

Analitik kamera OES, RTS va IIMS usullari bilan shakllangan epitaksial tuzilmalar tadqiqotlari uchun xizmat qiladi. IIMS usuli qatlamlarning elementar tarkibini tahlil qilish uchun ishlatildi, OES usuli qatlamlarning morfologiyasi va stexiometriyasini o'rganish uchun ishlatildi. Taglik asosni CoSi₂ qatlami bilan qoplash koeffitsiyentini Oje-profillash paytida Co va Si Oje-signallari intensivligi bilan bog'laydigan analitik munosabat olindi.

Bayon qilinayotgan tajribalarning muhim xususiyati shundaki, o'rganilayotgan namunalarda vakuumni buzmasdan o'sish kamerasidan analitik kamera o'tkazildi.

“Kremniy sirtida temir atomlari bilan ion-implantatsiyalangan yupqa qatlamlarni hosil qilish texnologiyasi” nomli uchinchi bobda Si<Fe> tizimlari uchun chuqurlik bo'ylab atomlar taqsimlanishining konsentratsiya taqsimotlarini o'rganish bo'yicha tajribalar natijalari keltirilgan.

Temirning kremniyda taqsimlanish rejimlari o'lchovlari “RIBER” kompaniyasining LAS-2200 rusumidagi ikkilamchi ion massa spektrometrik qurilmasida va mazkur dissertatsiya ishda tasvirlangan qurilmada o'lchandi.

Si da implantatsiya qilingan Fe va Co kirishma atomlarining maksimal konsentratsiyasi legirlash dozasi 1·10¹⁶ ion/sm² ga teng bo'lganda Fe uchun mos ravishda 45,0-50,0 nm va 180,0-200,0 nm kattalikdagi chuqurliklarda yotishini ko'rish mumkin. Fe maksimumining cho'kish chuqurligidagi bunday farq uning massasi va elektron konfiguratsiyasidagi katta farq bilan tushuntiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ikki xil qurilmada o'tkazilgan tajriba natijalari bir-birini to'lato'kis tasdiqlaydi. Chuqurlik bo'ylab aralashma tarqatish egri chizig'idan ko'rinib turibdiki, har ikki natijalar uchun R_p deyarli aniq teng.

Nurlanishning dozasi va energiyasiga qarab ion implantatsiyasi yarimo'tkazgich materiallar tarkibi, tuzilishlari va xossalari sezilarli o'zgarishga olib keladi. E = 20 (40 keV energiyadagi temir ioni bilan legirlangan kremniy monokristali alohida qiziqish uyg'otadi, chunki past nurlanish miqdorlarida (D < 10¹⁵ sm⁻²) termo diffuziya usuli bilan olib bo'lmaydigan yuqori konsentratsiyalar hosil bo'ladi, yuqori ion miqdorlarida yangi fizik xususiyatlarga


ega metall silitsidlar hosil bo‘ladi. Biroq, bunday silitsidlar hozirda MNE va QFE usullari bilan olinadi.

Boshqa tomondan, aynan bizni qiziqtirgan chuqurlik bilan bog‘liq rentgen reflekslarini analitik ravishda aniqlash juda qiyin. Shuning uchun struktura turi va uning parametrlari tafsilotlariga to‘xtamasdan, struktura o‘zgarishlarini aniqlash uchun an’anaviy REM-2000 rastrli elektron mikroskopidan foydalanildi. Temirni kompensatsiyalovchi kirishma sifatida tanlash haroratning keng oralig‘ida kremniy panjarasidagi kirishma atomlarining holati ancha barqaror ($100 \div 450$ °C) va shu bilan birga kremniy bilan legirlangan kremniyning parametrlari ham.

$E_0 = 40\text{keV}$ energiyali, nurlanish dozasi $10^{15} \div 10^{17}$ ion/sm² oralig‘ida bo‘lgan kremniyga implantatsiya qilingan temir atomining teng taqsimlanishning konsentratsion taqsimotining tajriba ishlari olib borildi. Boshlang‘ich material sifatida KDB markadagi solishtirma qarshiligi $p=10$ Om·sm bo‘lgan kremniy ishlatildi, tadqiqotlar ikkilamchi ion mass-spektrometriya, Rezerford teskari sochilishi va elektron Oje- mikroskopiya usullari yordamida amalga oshirildi.


Legirlangan kirishmaning va kremniyni o‘zining konsentratsion mosligining RTS usuli bilan tadqiq etilishi quyidagi natijalarni berdi. 10^{15} ion/sm² dozada implantatsiya qilingan temir uchun namuna yuzasida atom birliklari hisobidan 83% kremniy, 15% kislorod va 2% temir tashkil qiladi. Usulning sezgirligi oralig‘ida temir 600 Å chuqurlikkacha kuzatiladi. 400 Å chuqurlikda nurlanish miqdori 10^{16} ion/sm² bo‘lganda elementlar mutanosibligi quyidagicha bo‘ldi, atom birliklari hisobidan kremniy 76%, kislorod 18% va temir 6%. 400 Å chuqurlikda nurlanish miqdori 10^{17} ion/sm² bo‘lganda elementlar mutanosibligi quyidagicha bo‘ldi: atom birliklari hisobida Si - 82 %, O - 3 % i Fe - 15 %. Haroratni qizdirish elementlar foizlari nisbatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, 10^{16} ion/sm² nurlanish dozasi bilan legirlangan namunalar uchun taqsimot maksimumi 800 Å chuqurligiga o‘tadi.

1-rasmda Si(111) dan 10^{15} ion/sm² ÷ 10^{17} ion/sm² gacha dozali He⁺ ionlari bilan implantatsiya qilingan Si bitta kristalldan He⁺ ionlarining orqalik taglik asoslari keltirilgan. 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, Fe ning cho‘qqi xarakteristikasi spektrda $D \approx 10^{15}$ ion/sm² dozada paydo bo‘ladi. Shu bilan birga sirtning kristall tuzilishi va ion-legirlangan qatlamlarning elektrofizik xossalari o‘rganildi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, $D \leq 10^{15}$ ion/sm² da hali sirtga yaqin yuza qatlamlarining sezilarli darajada kengayishi kuzatilmaydi, Fe ning elektrofaol atomlarining konsentratsiyasi $\sim 5 \cdot 10^{13} \text{sm}^{-3}$ dan oshmaydi. Dozani $5 \cdot 10^{15}$ ion/sm² ga oshirish amalda Fe ning elektrfaol atomlari konsentratsiyasining ortishiga olib kelmaydi. Sirtga yaqin yuza qismida qisman tartibsizlik bo‘ladi, Fe ning teskari sochilish cho‘qqisi aniqroq va yanada kuchli bo‘ladi.



1-rasm. Energiya miqdori 40 keV va nurlanish miqdori 10^{15} - 10^{17} ion/ sm^2 bo'lgan Fe ionlari bilan legirlangan Si monokristallidagi He^+ ionlarining RTS spektrlari

$D \approx 10^{16}$ ion/ sm^2 nurlanish miqdorida sirtga yaqin yuza qatlamning amorflanishi va Fe cho'qqisining sezilarli o'sishi sodir bo'ladi, ion legirlangan qatlamning ma'lum joylarida Fe+Si ning klasterli fazalari paydo bo'la boshlaydi. Bu o'zgarishlar $(8 \div 10) \cdot 10^{16}$ ion/ sm^2 miqdorgacha sodir bo'ladi. Miqdorning keyingi ortishi Si va Fe cho'qqilarining nisbiy intensivligining sezilarli o'zgarishiga olib kelmaydi. Shuning uchun $D \approx 10^{17}$ ion/ sm^2 miqdorini to'yinish miqdori sifatida qabul qilish mumkin. Yuqoridagi holatda elektrfaol atomlarning eng yuqori konsentratsiyasi $5 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ gacha yetgan. Metall atomlarining nurlanish miqdoriga qarab Si da chuqurlik bo'yicha taqsimlanishi qiziqish uyg'otadi. O'rtacha nurlanish dozalarida ($D = 10^{15} \div 10^{16} \text{ sm}^{-2}$) taqsimlanish profili bir necha maksimumga ega bo'lgan juda murakkab shaklga ega. Misol sifatida, 2-rasmda Fe va Si konsentratsiyasining $D = 10^{16}$ ion/ sm^2 ionlari miqdori uchun chuqurlikka bog'liqligini ko'rsatadi.




2 - rasm. Energiya miqdori 40 keV va nurlanish miqdori 10^{16} ion/ sm^2 bo'lgan Fe ionlarining Si dagi taqsimlash profillari

2-rasmdan ko'rinadiki, Fe konsentratsiyasi birinchi maksimum davrida ($d = 100 \text{ Å}$) $25 \div 30$ at. % gacha yetadi. Implantatsiya qilingan atomlarning asosiy qismi sirt usti yuzada $d = 300 \text{ Å}$ chuqurlikkacha joylashgan. $d = 400 \text{ Å}$ da d ortib borishi bilan temirning konsentratsiyasi keskin kamayadi va $800 \div 850$ chuqurlikda esa uning qiymati $1 \div 2$ at. % dan oshmaydi. Yuqori nurlanish dozalarida ($D > 10^{17}$ ion/ sm^2) bir necha maksimum o'rniga bitta maksimum paydo bo'ladi va temirning sirtidagi konsentratsiyasi keskin kamayadi. Oxirgi holat sirt usti

atomlarining sochilish tezligini oshirish bilan izohlanadi. $D \approx 10^{17}$ ion/sm²da Fe ning taqsimoti Gauss shakliga ega bo‘lib, maksimum yuza qatlamlarda $d \approx 400 \div 450$ Å da hosil bo‘ladi. Maksimumda temir tarkibi $\sim 30 \div 35$ at.% ga teng. Ion dozalarining yanada ortishi maksimumning sirt tomon siljishiga va uning kengayishiga olib keladi. Bu sirt qatlamlarini intensiv changlanishiga ham va metall silitsidlarning shakllanishi tufayli sirtga yaqin qatlamlarining zichligini oshirishga ham bog‘liq. Shu bilan birga, keng maksimum hududida temir konsentratsiyasi $35 \div 40$ at. % ga teng bo‘ladi. Bu qatlamlarda asosan FeSi₂ tipidagi birikmalar hosil bo‘ladi.

Yuqori miqdordagi ionlar ($D > 10^{16}$ ion/sm²) bilan legirlangan namunalar qizdirilganda boshqacha ko‘rinish kuzatiladi. 3-rasmda $D = 10^{16}$ ion/sm² bo‘lgan Fe⁺ ionlari bilan legirlangan Si(111)ning turli haroratlarda qizdirilganidan keyin olingan C_{Fe}(d)ning bog‘liqligi ko‘rsatilgan.




3-rasm. 40 keV energiyali va 10^{17} ion/sm² miqdorli implantatsiya paytida Si da Fe ning tarqatilish profillari. a- yumshatishsiz; b-1200 °C haroratda qizdirilgandan keyin

Qizdirish paytida legirlangan qatlamning tarkibi va tuzilishidagi asosiy o‘zgarishlar 25÷30 daqiqa ichida sodir bo‘ladi. $T = 600 \div 1200$ °C intervaldagi harorat oralig‘ida maxsus metodika bilan olib borilgan issiqlik ishlovi ko‘rsatdiki, 600 °C haroratda temir atomlarining sezilarli faollashuvi amalga oshadi, buni namunalarni sirt qarshiligining ortishi bilan baholash mumkin. Izotermik qizdirishda haroratdan qat’i nazar, implantatsiya miqdori oshishi bilan implantatsiya samaradorligi oshadi.

Bundan ko‘rinadiki, spektrda Fe ga xos bo‘lgan cho‘qqi $D \sim 10^{15}$ ion/sm² dozada paydo bo‘la boshlaydi. Bu bilan bir vaqtda sirtning kristall tuzilishi va ion legirlangan qatlamlarning elektrofizik xossalari o‘rganildi. Bu tajribalarning natijalari shuni ko‘rsatdiki, $D \leq 10^{15}$ ion/sm² da hali sirtga yaqin qatlamlarning tartibsizligi namoyon bo‘lmaydi, Fe ning elektrfaol atomlarining konsentratsiyasi $\sim 5 \cdot 10^{13}$ sm⁻³ni tashkil etadi.

$E_0 = 40$ keV energiyali, nurlanish miqdorini $10^{15} \div 10^{17}$ ion/sm² oraliqda variatsiyalanuvchi kremniyda implantatsiyalangan temir atomlarining konsentratsiya taqsimotlarini tadqiq etilishi bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazildi. Dastlabki material sifatida, solishtirma qarshiligi $\rho = 10$ Om·sm bo‘lgan KDB rusumdagi kremniydan foydalanildi, tadqiqotlar ikkilamchi ion mass-spektroskopiya, tez elektronlarni kaytarilishiga bo‘lgan difraksiyasi,


Rezerford teskari sochilishi, IIMS va elektron Oje-mikroskopiya uslublaridan foydalanilgan holda o'tkazildi.



4-rasm. Sof kremniy yuzasi (a) va ion legirlangan Fe⁺ (b) yuzalarining elektron-mikroskopik suratlari

4-rasmdan ko'ringanidek, sof kremniy bo'lishida elektron surat yaxlit va bir tekis ko'rinishda bo'ladi, chunki namunalar jilvirlangan va silliqlangan edi (4.a.-rasm.) Ion legirlanishidan keyin, nurlanish dozasi va ionlarning turiga bog'liq ravishda, elektron surat ko'rinishi jiddiy o'zgaradi. Surat ko'rinishi silliq yuzadan g'adir-budur yuzaga o'tadi (4.b.rasm).

800 °C dan yuqori haroratda suratda monokristallarga xos bo'lgan ba'zi hoshiyalangan sohalar elektron Oje-spektroskopiya uslubida element tahlili ular asosan Si va Fe atomlaridan va qisman kisloroddan tashkil topganligini ko'rsatdi. Kremniy va temirning Oje cho'qqilarini amplitudali holati, bu sohalar FeSi₂ turidagi silitsidlar ekanligini tasdiqlash imkonini beradi. Aynan shunga o'xshash ko'rinishlar Fe ionlari bilan 10¹⁶ ion/sm² nurlanish dozasi Fe bo'lishi holatida kuzatiladi, hoshiyalangan sohalar 800 °C va bundan yuqori haroratda paydo bo'ladi (5-rasm).



5-rasm. 10¹⁶ ion/sm² miqdorli Fe ionlari bo'lgan nurlantirilgan yuzani 800 °C haroratda termik ishlanishidan keyingi elektron-mikroskopik surati

Murakkab yuza jarayonlari legirlovchi kirishmalarning turi, harorati va dozasi bog'liqdir. Kremniy namunalarini katta miqdorlarda legirlashda mutlaqo boshqacha natijalar olinadi. 6-rasmda 10¹⁷ ion/sm² miqdorda Fe ionlari bilan

legirlangan kremniy yuzasini 800 °C haroratda qizdirilishidan keyingi elektron suratlari ko'rsatilgan.



6-rasm. 10^{17} ion/sm² nurlanish miqdorida Fe ionlari bilan legirlangan yuzaning, 800 °C termik qizdirilishidan keyingi elektron-mikroskopik surati

Olingan natijalarni tahlil qilinishi, namunaning yuzasida bo'lgani kabi, chuqurlik bo'yicha ham ion implantatsiya jarayonida temirni taqsimlanish maksimumi asosan kislorod miqdori va konsentratsiyasini o'zgarishi hisobiga o'zgaradi. Temir ionlarini kremniyga singib kirishi asosan kislorodni siqib chiqaradi. Ion legirlash, ionlar dozasi va energiyasiga bog'liq ravishda yuzaning strukturasi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Legirlashdan keyin yuzaga g'adir-budur bo'lib qoladi. Ushbu strukturaga haroratli qizdirish kuchli ta'sir ko'rsatadi. 800 °C dan yuqori haroratda, monokristall uchun xos bo'lgan ba'zi hoshiyalangan sohalar hosil bo'ladi.

Struktura o'zgarishlari nurlanish miqdori va qizdirish haroratiga bog'liqdir. Masalan, 10^{17} ion/sm² nurlanish miqdoriga ega temir uchun, 800 °C haroratda yuzada ko'psonli nuqsonlarga ega monokristall ko'rinishidagi qatlam hosil bo'ladi. Haroratni 1100 °C gacha yanada ko'tarilishi yuzada amorf qatlamni paydo bo'lishiga olib keladi.

“Kremniy sirtida kobalt atomlari bilan ion-implantatsiyalangan yupqa qatlamlarning metallografik va elektrofizik xususiyatlari” nomli to'rtinchi bobda 10^{15} ÷ 10^{17} sm⁻² oralig'ida nurlanish miqdorining o'zgarishi bilan kremniyda implantatsiya qilingan Co atomlarining tarqalish konsentratsion taqsimotlarini aniqlash bo'yicha eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar IIMS, RTS va OES usullari yordamida ion tozalash bilan birgalikda amalga oshirildi. Nurlanishning miqdori va energiyasiga qarab ion implantatsiyasi yarimo'tkazgich materiallar tarkibi, tuzilishi va xossalari sezilarli o'zgarishiga olib keladi. 20-50 keV energiyali Co ioni bilan legirlangan kremniy monokristali alohida qiziqish uyg'otadi, chunki past nurlanish miqdorlarida ($D \leq 10^{15}$ sm⁻²) yuqori konsentratsiyali elektrfaol markazlarni yaratish mumkin, ular termik diffuziya usuli bilan yaratilmaydi; yuqori ion dozalarida yangi fizik xususiyatlarga ega bo'lgan metall silitsid hosil bo'ladi. Namunaning Oje-profillari 7-rasmda, silitsidning o'sish rejimlari va tahlil natijalari esa 1-jadvalda keltirilgan. CoSi_2/Si (100) qatlamlarining

o'sish rejimi, stexiometriyasi va yuza qarshiligi morfologiyasining OES tahlili natijalari.

1- jadval

Namuna №	Taglik asos tipi	Å	Epitaksiya tipi	$T_s, ^\circ C$	t_{OTJ}, min	Cho'kish tezligi, Å/s	I_{Co}/I_{Si}	I_{Si^II}/I_{Si}	θ	$R_s, \text{MKOM} \cdot \text{SM}$
1	KDB-7,5	105 105	RE	633 660	—	2 2	0,52	0,93	0,43	18
2	KDB -7,5	210	QFE	575	5	2	0,47	0,88	0,87	25
3	KEF-4,5	210	QFE	610	7	2	0,54	0,87	0,83	25
4	KEF-4,5	105 105	RE RE	580 562	—	2 2	0,89	0,78	0,95	8
5	KDB -12	210	QFE	630	7	2	0,65	0,94	0,29	23

Turli uslublarda o'stirilgan qatlamlarning tahlili, qatlamlar morfologiyasi va stexiometriyasi kritik ravishda o'sish shart-sharoitlariga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. CoSi_2/Si qatlamlar morfologiyasi nuqtai nazardan uch asosiy turga bo'lish mumkin:

- 1) yaxlit CoSi_2 qatlamlari;
- 2) mikroskopik teshikli pardalar;
- 3) oralchasimon pardalar;

CoSi_2 stexiometriyasi farqlanishi bo'yicha ikki fazalarga bo'linadi:

- 1) ($\text{CoSi}_2\text{-Si}$) kremniy bilan boyigan CoSi_2 ;
- 2) ($\text{CoSi}_2\text{-Co}$) kobalt bilan boyigan CoSi_2 ;

Morfologi, stexiometriya va CoSi_2/Si strukturalarning o'sish shart sharoitlari o'rtasida o'rgatilgan bog'liqliklar, epitaksial katlamlari ma'lumotlari asosida asbob strukturalarini yaratishda katta ahamiyatga egadir. Ko'pchilik hollarda, maksimal birjinsli qatlamlar olinish masalasi oldinga quyiladi, biroq bir qator qo'llanishlarda boshqariluvchi morfologik tavsiflarga ega bo'lgan, submikron o'lchashlardagi teshikli qatlamlarni shakllanishi qiziqish hosil qiladi. Singuvchi bazali tranzistor yasash usuli taklif etiladi, qaysiki bularda metall asosidagi teshiklar rolini CoSi_2 qatlamidagi tabiiy submikron teshikchalar o'ynaydi α – Tranzistor tokini uzatilish ko'effitsiyentini CoSi_2/Si sistemadan qoplanish θ ko'effitsiyenti bilan bog'lovchi ifoda taklif etiladi;

$$\alpha = \frac{\xi}{\gamma + \xi}, \quad (1)$$

bunda,

$$\gamma = \frac{1 - \theta}{\theta}, \quad (2)$$


$$\varepsilon = \kappa T / e \Delta_0 [\exp(e \Delta_0 / kT) - 1] \quad (3)$$

Bunda Δ_0 – teshik markazida Shottke to'sig'i kattaligini o'zgarishi ($\Delta_0 = f(x)$; x – teshiklar o'rtacha diametri.

